

AMIR TEMUR MEROSSI VA UCHINCHI RENESSANS

Sultonova E'tibor Abdullayevna
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani
6-sonli mактабning tarix fani o'qituvchisi
sultonovae'tibor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan benazir siymlardan biri, Sharq Ikkinchı Renessansining me'mori sohibqiron Amir Temurning uchinchi renessans uchun hissasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, Amir Temur, L. Keren, Musulmon Renessansi, Adam Mes.

Annotation: This article discusses the contribution of Amir Temur, one of the unique figures who played an important role in the development of humanity, the architect of the Second Renaissance of the East, to the Third Renaissance.

Key words: The Third Renaissance, Amir Temur, L. Keren, Muslim Renaissance, Adam Mes.

Аннотация: В данной статье говорится о вкладе Амира Темура, одной из уникальных фигур, сыгравших важную роль в развитии человечества, архитектора Второго Ренессанса Востока, в Третий Ренессанс.

Ключевые слова: Третье Возрождение, Амир Темур, Л. Керен, Мусульманское Возрождение, Адам Мес.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Shuning uchun, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur anglab olishimiz zarur.

So‘nggi davrda Markaziy Osiyo va qo‘shti hududlarda olib borilgan tarixiy, arxeologik va etnografik tadqiqotlar mazkur mintaqada qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutganligini

ko‘rsatuvchi ko‘plab ashayoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularga asoslanib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tarixiy tushunchalardan ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda.[1]

Tarix faniga “Musulmon Renessansi” tushunchasi taniqli Avstriya sharqshunosи Adam Mes (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida, yanada aniqrog‘i, 1909 yilda kiritilgan. Olim “Sharq” atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O‘rta yer dengizidan to Yevropa qit’asigacha (subkontinentgacha) bo‘lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko‘tarilganligini ko‘zda tutgan. Mazkur o‘lkalar qadimiy sivilizatsiya beshigidir. Sobiq sovet davrida tarix va o‘quv adabiyotlarida faqat G‘arb Uyg‘onish davri haqida gap borardi. Sharqdagi Uyg‘onish jarayoni haqida esa lom-lim deyilmacdi. Chunki tarix fanida yevropotsentrizm g‘oyasi hukmron, G‘arb ilg‘or, Sharq qoloq aqidasi ustuvor edi. Vaholanki, o‘sha davrda avstriyalik olim A.Mes, rus olimi N.Konrad Sharq Renessansi haqida xolisona fikrlarini bildirishgan. O‘zbek olimlaridan I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, F.Sulaymonova, B.Qosimov, T.Shirinov ham Sharq Uyg‘onish davri haqidagi teran fikrlarni salmoqli asarlarida bayon etgan. Temuriylar Renessansi – Musulmon Renessansi Sharq tamadduni tojidagi javohirlardan biri sanalib, uni o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi tadqiqotlar yaratildi.[2]

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida tarixda birinchi marotaba: “Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shtigan beba ho hissasini alohida qayd etmoqchiman”, deb ta’kidlagani bejiz emas.

Mashhur fransuz temurshunosi L.Keren ta’kidlaganidek: “Amir Temur insoniyat rivojiga ajoyib miniatyuralar, tengi yo‘q sirlangan sopol idishlar, she’riyat va ilhomga to‘la falsafiy asarlar yaratilishiga imkon yaratgan o‘zining ulug‘vor davri bilan ulkan hissa qo‘shtigan. Sohibqiron bobomiz “Temuriylar Uyg‘onish davri” deb atalmish sermahsul madaniy merosga asos solgan”.[3]

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo'lida ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpion, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.[4]

Prezidentimiz joriy yil O'qituvchi va murabbiylar kunidagi nutqida alohida e'tirof qilganidek, jadidlarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermagan. Ular o'sha davr turli kimsalarining tuhmat-malomatlariiga duchor bo'ldilar. Dastlab Rus podshohligi, keyinchalik sho'rolar hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qilgan. Oqibatda milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati Vatanimiz uchun yorqin xotira sifatida qoldi. Yurtimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'rt yilda ma'rifat, ta'llim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.[5]

Sohibqironningadolatga yo'g'rilgan fikrlari, siyosiy qarashlari, yurtga mehri, elga sadoqati o'z navbatida ma'rifatni ulug'lashi bugungi zamon, ayni davr uchun ham dolzarbdir. Amir Temurning tarixdagi o'rni nafaqat buyuk davlat asoschisi, buyuk tamaddun, uyg'onish davri yaratuvchisi sifatida ham ahmiyatlidir. Biz bugun

vatanimizda uchinchi renessans davri poydevorini qo‘yayotgan ekanmiz, Amir Temur yaratgan ikkinchi renessans davri biz uchun hamisha namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1]. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob.
- [2]. Бўрибой Аҳмедов. Амир Темур сабоклари 2-Том. Ғафур Ғулом номидаги Адабийот ва санъат нашрийоти. Тошкент. 1999.
- [3] K. Sultonov. Amir Temur siyosiy, huquqiy, va ma'naviy ma'rifiy qarashlarining milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Toshkent." Ma'naviyat" 2019.
- [4]. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adbiyot va san'at nashriyoti. 1996-yil.
- [5]. Amir Temur Jahon tarixida. Sharq nasriyoti. Toshkent. 1996 yil.